

---

## SO'X TUMANIDA 2023 YILDA 4 BOSQICH - "AYOLLAR DAFTARI"GA KIRITILGAN XOTIN-QIZLARGA KO'RSATILGAN YORDAMLAR



### So'x tumanida 2023 yilda 4 bosqich - "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga ko'rsatilgan yordamlar

So'x tumanida "Ayollar daftari"ni yuritish orqali ishlash tizimini yanada takomillashtirish, ularni ijtimoiy-huquqiy, psixologik, tibbiy va moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida "Ayollar daftari"ni shakllantirish bo'yicha 2023 yil yanvar-fevral oylarida **14 230** ta xonadonda **18 214** nafar 30 yoshdan yuqori xotin-qizlardan **18 154** nafari bilan so'rovnomani anketasi to'ldirildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj **1 972** nafar xotin-qizlar bilan individual dasturlar tayyorlanib "Ayollar daftari"ga kiritish bo'yicha ro'yxatlari shakllantirilib, "Yul xarita"si ishlab chiqildi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2023 yil 1 dekabr holatiga **1 972** nafar "Ayollar daftari" ga kiritilgan xotin-qizlarga yordamlar ko'rsatildi.

"Ayollar daftari"dagi xotin-qizlarga ko'rsatilgan yordamlarni sohalar kesimida tahlil qilinganida:

1 toifaga **1 ming 414** nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz bo'lgan xotin-qizlardan **1 414** nafar ayollarni bandligini ta'minlash va kasbga o'qitish bo'yicha yordamlar ko'rsatildi.

#### Jumladan:

- doimiy ishga joylashtirilganlar **144** nafar, ipak kurti boqisha **726** nafar, o'zini-o'zi band qilinganlar **284** nafar, kasb hunarga o'qitilganlar **204** nafar, haq tulanadigan jamoat ishlariga jalb qilish orqali bandligini taminlanganlar **56** nafar.

- **94** nafar tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan ehtiyojmanda xotin-qizlardan **94** nafariga **1 milliard 216 million 5 yuz** ming so'm kredit mablag'lari ajratilib tadbirkorlik faoliyatlarini boshladilar.

- **148** nafar boquvchisi bo'lmagan, ehtiyojmand xotin-qizlardan **148** nafariga bir martalik moddiy yordam 182 million 400 ming so'm berildi va qo'shimcha yordamlar (homiylar tomonidan Navro'z bayrami, ramazon oyi, hayit va mustaqillik bayrami munosabati bilan oziq-ovqat mahsulotlari berildi) ko'rsatildi.

- **179** nafar ijtimoiy yordamga muhtoj hamda 1 va 2 guruh nogironligi bo'lgan xotin-qizlardan **179** nafariga 203 million 300 ming so'm bir martalik moddiy yordam berildi.

- **137** nafar qaramog'ida nogironligi bo'lgan farzandi mavjud ehtiyojmand xotin-qizlardan **137** nafariga 164 million 500 ming so'm ayollar jamg'armasi tomonidan bir martalik moddiy yordam ajratildi va qushimcha yordamlar (homiylar tomonidan Navro'z bayrami, ramazon oyi, hayit va mustaqillik bayrami munosabati bilan oziq-ovqat mahsulotlari berildi) ko'rsatildi.

2023 yil un oyi davomida "Ayollar daftari"ga kiritilgan **1 ming 972** nafar ayollardan **1 ming 972** nafariga yordam ko'rsatildi. Reja **100 %ga bajarildi**.

"Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga ko'rsatilgan yordamlarni xaqqoniyligini o'rganish jarayonida aniqlangan kamchiliklar bo'yicha har bir sektor rahbarlariga ma'lumot kiritilib, kamchiliklar bartaraf qilindi.

#### Qo'shimcha yordamlar

- **179** nafar xotin-qizlarni tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan chuqurlashtirilgan tibbiy kurikdan o'tkazildi;

- **64** nafar xotin-qizlarni tuman prokuratura, tuman IIB va Adliya bo'limi tomonidan huquqiy maslahatlar berildi;

- **161** nafar xotin-qizlarga tuman Ayollar maslahat kengashi va umumta'lim maktablarining psixologlari

---

tomonidan ko'rsatilgan psixologik yordamlar berildi.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-01-06 10:14:23